

Qoraqalpog‘iston Respublikasida bajarilgan qurilish ishlari


2026-yil yanvar-aprel oylari uchun

- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlari
- III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo‘yicha taqsimoti
- IV. Qurilish ishlari bo‘yicha uslubiy tushuntirishlar va metama‘lumotlar

I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2026-yilning yanvar-aprel oylarida, Qoraqalpog‘iston Respublikasida jami 4 448,8 mlrd so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 159,9% ni tashkil etdi.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi





Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati

	Hajm, mlrd so'm	O'sish sur'ati, %
Qoraqalpog'iston Respublikasi	4 448,8	159,9
Nukus shahri	699,3	112,5
<i>tumanlar</i>		
Amudaryo	140,7	109,5
Beruniy	147,7	105,9
Bo'zotov	38,5	110,8
Qorao'zak	35,6	103,0
Kegeyli	46,0	114,3
Qo'ng'iro't	290,0	258,8
Qonliko'l	40,6	110,1
Mo'ynoq	1 265,7	1 493,2
Nukus	108,5	106,8
Taxiatosh	118,4	102,1
Taxtako'pir	46,3	103,4
To'rtko'l	297,8	116,0
Xo'jayli	86,1	117,6
Chimboy	85,7	109,9
Shumanay	30,5	111,3
Ellikqal'a	180,1	111,7

2026-yilning yanvar-aprel oylarida shahar va tumanlar kesimida, xususan, Mo'ynoq tumani (1 265,7 mlrd so'm), Nukus shahri (699,3 mlrd so'm) va Qo'ng'iro't tumanida (290,0 mlrd so'm) qurilish ishlari yuqori hajmi qayd etildi.

II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari


2026-yilning yanvar-aprel oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 79,3% ulushni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 191,0% ni tashkil etdi;


- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 16,3% ulushni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 101,8% ni tashkil etdi;

- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 4,4% ulushni va 2025-yilning mos davriga nisbatan 87,7% ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi



III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti va o'sish sur'ati



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2026-yilning yanvar-aprel oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1 804,4 mlrd so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2025-yilning mos davriga nisbatan 8,2 marta ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 32,6 % ga ko'payib, 40,5 % ni tashkil etdi.

2026-yilning yanvar-aprel oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 39,1 % i to'g'ri kelib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 22,8 % ga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2025-yilning mos davriga nisbatan 100,9 % ni tashkil etgan holda 1 738,5 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

**Shahar va tumanlar kesimida korxonalar turlari bo'yicha
bajarilgan qurilish ishlari**

	Hajm, mlrd so'm			O'sish sur'ati, % da		
	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor	Yirik	Kichik va mikrofirma	Norasmiy sektor
Qoraqalpog'iston Re sp.	1 804,4	1 738,5	905,9	8,2m	100,9	107,8
Nukus shahri	84,3	587,4	27,6	20,8m	99,0	115,0
<i>tumanlar</i>						
Amudaryo	5,5	86,5	48,7	255,4	107,8	105,5
Beruniy	9,1	114,5	24,1	279,1	100,6	107,5
Bo'zotov	2,4	30,0	6,2	419,3	103,2	118,9
Qorao'zak	3,8	24,8	7,1	74,6	108,1	106,7
Kegeyli	5,8	32,1	8,1	451,2	102,3	106,7
Qo'ng'iro't	239,3	44,3	6,4	559,6	74,4	66,1
Qonliko'l	3,7	13,0	23,9	151,4	122,0	100,6
Mo'ynoq	1 222,4	35,2	8,1	64,4m	61,7	93,1
Nukus	4,0	73,3	31,2	234,0	107,6	98,2
Taxiatosh	11,9	91,5	15,0	41,6	125,5	104,2
Taxtako'pir	8,7	30,3	7,3	66,6	123,4	101,6
To'rtko'l	59,1	186,8	51,9	412,6	97,2	103,0
Xo'jayli	12,2	51,4	22,5	14,5m	103,4	99,3
Chimboy	11,4	27,1	47,2	805,4	100,5	95,3
Shumanay	3,3	13,3	13,9	109,4	126,1	100,5
Ellikqal'a	33,7	125,0	21,4	177,8	102,9	103,2

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 20,4 % ni yoki 905,9 mlrd so'mni tashkil etib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 107,8 % ni tashkil etdi. Shundan 861,3 mlrd so'mi yakka tartibdagi uy-joy qurilishiga to'g'ri kelib, 2025-yilning mos davriga nisbatan 107,6 % ni, jismoniy shaxslar tomonidan noturar-joylar qurilishi 2,3 mlrd so'mni, yakka tartibdagi turar-joylarni ta'mirlash ishlari 42,4 mlrd so'mni tashkil etdi.

IV. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
- b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;
- d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi Davlat kadastrlari palatasining Qoraqalpog'iston Respublikasi boshqarmasi statistika hisobotlari;
- e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuv ma'lumotlari;
- f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

Tayyorlash uchun mas'ul:

Investitsiyalar va qurilish
statistikasi bo'limi

Ijrochi:

D. Abdullaeva

Manzil:

230103, Nukus, A. Dosnazarov
ko'chasi, 97 a-uy

Pochta: info@qrstat.uz

Tel.: +998 (61) 222-75-91
